

№6, 2022 y. 19 yanvar

Jahon bozorida mis sanoati **DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022



"Harakatlarimizning asosiy maqsadi yaqin yillarda yaxlit, "noldan tayyor mahsulotgacha" bo'lgan metall ishlab chiqarish klasterini yaratishdan iborat"

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh.M. Mirziyoev*

**"Jahon bozorida mis sanoati"
dayjesti. - T.: 2022. 18-b.**

"Jahon bozorida mis sanoati" dayjesti O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan tayyorlangan.

Mualliflar jamoasi:

Abduraxmonov I.Y.
Turdikulova Sh.O'.
Abduvaliyev A.A.
Musayeva R.A.
Barbu G.F.

Texnik muharrir:

Rayimjonov X.G'.

© O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi , 2022 y.

Jahon bozori

Prognozlarga ko'ra, 2020 yilda 23,8 million metrik tonnaga baholanuvchi jahon mis bozori 2027 yilga borib 26,7 million metrik tonnaga qayta ko'rib chiqilgan hajmga erishadi va 2020-2027 yillar davrida o'rtacha yillik o'sish sur'atlarida o'sishda davom etadi [1].

Elektrotexnika va transport sanoati, mashinasozlik va metallurgiya, arxitektura va san'at va boshqa tarmoqlarda misdan foydalanishning o'sishi mis bozoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi [2].



So'nggi yillarda jahon mis bozori garchi ishlab chiqarish oshib borsa-da, past narxlar va talabning pasayishi bilan ajralib turdi. Xitoy misning eng yirik iste'molchisi bo'lishda davom etmoqda, mamlakat bozorida vaziyat jahon metall ishlab chiqarishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mis rudasini qazib olish bo'yicha eng yirik konlarning ko'pchiligi Chilida joylashgan, ushbu mamlakatga jahon qazib olishining 31% to'g'ri keladi.


Jahon mis bozorining jonlanishi kutilmoqda, ammo talabdan taklifning oshishi narxning sezilarli darajada o'sishiga yo'l qo'ymaydi [3].

Misning jahon bozorida savdosi

2020 yilda mis bozori 2020 yilning 3-choragida sotuvlar hajmining o'rishini ko'rsatdi. International Metallurgical Research Group baholari va hisob-kitobdari bo'yicha agar 2019 yilning 1-choragida mis bozorida sotuvlar hajmi 11 644 785 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, u holda 2020 yilning 3-choragida sotuvlar hajmi 12 349 574 ming AQSh dollariga baholangan edi, bu bozorning barcha to'laqonli o'rishini ko'rsatadi [4].

Bunda sotuvlar ko'rsatkichi aynan 2020 yilning 3-choragida rekord ravishda yuqori bo'lgani kelib chiqadi.

2020 yilning 9 oyi uchun 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan tahlilchilar guruhi sotuvlar hajmining o'rishini 34 524 755 ming AQSh dollari darajasigacha +1,6%ga oshishini baholadi. Albatta, agar tabiiy ifodada taqqoslasak, unda mis sotuvlarining ko'rsatkichi boshqacha bo'ladi. Biroq, ancha tasvirlovchi dinamika aynan pul ifodasida kuzatiladi, chunki bu ko'rsatkich ushbu bozorda aylanib yuradigan pul mablag'larining miqdorini baholaydi.



1-rasm. - 2019-2020 yillarda jahon mis bozorida sotuvlarning dinamikasi.

Mis narxlari

2020 yilning 1-choragida mis narxiga uch omil ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, Xitoyda ishlab chiqarish va investitsion faollikning sezilarli pasayishi fonida mis iste'molining yaqqol qisqarishi [5].

Ikkinchidan, ushbu mamlakatda xom ashyo, xususan tayanch metallarga talabning potensial tushish ko'lamining noaniqligi.

Koronavirus inqirozining rivojlanishi sayin Xitoydan tashqarida geografiyani kengaytirib va narxlarga bosimni oshirib, ushbu ikki omil kuchaydi. Uchinchi omil neft narxining keskin pasayishi bo'lib, bu birinchi ikki omilning natijasida ro'y berdi.

Ko'rsatkich	2018 y.	2019 y.	2019 y. (6 oy)	2020 y. (6 oy)	O'zg. 20/19, % y/y
LME* narxi	\$6 524	\$6 002	\$6 166	\$5 493	-10,9%

1-jadval. -Mis narxlari ko'rsatkichlarining dinamikasi

	2016 r.	2017 r.	2018 r.	2019 r.	2020 r.	O'zg.yil 2020/2019
Qazib olish	20 357	20 060	20 575	20 431	20 223	-1%
Mis ishlab chiqarish	23 338	23 524	24 098	24 046	24 434	2%
Xitoy	8 454	8 915	9 291	9 593	9 930	1%
Chili	2 613	2 430	2 461	2 269	2 461	8%
Yaponiya	1 553	1 488	1 595	1 495	1 581	6%
AQSh	1 223	1 079	1 111	1 051	935	-9%
va boshqalar	9 495	9 612	9 640	9 638	9 527	1%
Mis iste'moli	23 605	23 789	24 489	24 456	24 486	0%
Xitoy	11 694	11 809	12 543	12 737	13 808	8%
EI-28	3 191	3 160	3 219	3 068	2 831	-8%
AQSh	1 811	1 796	1 811	1 839	1 727	-6%
Yaponiya	973	998	1010	971	842	-13%

2-jadval. -Mis bozorining jahon ko'rsatkichlari, ming tn

* LME – London metallar birjasi

Mis narxlari

2-jadval shuni ko'rsatadiki, 2020 yilda jahonda mis qazib olish sezilarli darajada kamaydi. Bu pasayish asosan koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq bo'ldi.

Dunyoning yetakchi mis ishlab chiqaruvchisi Chilida qazib olish 2020 yilda koronavirus pandemiyasi va qisqa muddatli ish tashlashlar oqibatida o'tgan yilga nisbatan 5,8 million tonnagacha 1% ga kamaydi. Shuningdek pandemiya sababli Peruda ishlab chiqarish 2 million tonnagacha 13,5% ga kamaydi [6].



2019-2020 yillar ko'rsatkichlarini taqqoslagan holda jahon mis ishlab chiqarishi 2% ga oshdi.



Global energetika tizimi qayta tiklanadigan texnologiyalar va elektrlashtirilgan jarayonlarning katta ulushini birlashtirgani sababli qizg'ish-oltin metallga talab batareyalar, dvigatellar, kuch kabellari va zamonaviy energetika infratuzilmasini tavsiflovchi ko'plab boshqa ilovalarni ishlab chiqarish uchun tez o'sishi kutilmoqda [7].

Xalqaro energetika agentligi (XEA) misga jahon talabi keyingi 20 yil davomida elektrlashtirish sur'atlari o'sgan sayin ikki barobarga oshishi mumkinligini taxmin qildi, bunda toza energiyani qo'llashga potensial tarzda umumiy talabning 45% to'g'ri kelishi mumkin.

Ayni paytda jahon ishlab chiqarishi bilan deyarli 40 ta mamlakatlarda taxminan 250 ta mis konlari mavjud. AQSh Geologiya xizmati bahosiga ko'ra, ishlab chiqarish hajmi 2020 yilda 20 million tonnani tashkil etadi, bu bor-yo'g'i 10 yil avval bo'lganidan 30% ko'pdir.

Baholangan jahon zaxiralari taxminan 870 million tonnani tashkil etadi, ularning deyarli to'rtidan biri Chilida joylashgan.

Misni asosiy ishlab chiqaruvchilari

Xitoy iqtisodiyoti dunyoda metall (mis) ning eng yirik iste'molchisi hisoblanadi va o'z ichki ishlab chiqarishiga qo'shimcha ravishda katta hajmlarni import qiladi [8].

Jiangxi Copper Xitoyning Szyansi viloyatidagi Dexing asosiy mis koni egalik qiluvchi mamlakatdagi asosiy ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi.

Chili ham yirik mis ishlab chiqaruvchi davlatlar orasida yetakchilardan biri hisoblanadi.

Ushbu Janubiy Amerika mamlakati dunyodagi eng yirik mis zaxiralariga ega bo'lib, AQSh Geologik xizmati baholari bo'yicha u 200 million tonnani tashkil etadi.

Ba'zi eng yirik mis konlari, shu jumladan Escondida, Collahuasi va El Teniente loyihalari Chilida joylashgan.

Codelco chililik ishlab chiqaruvchi mis qazib olish bo'yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalar orasida birinchi o'rinni egallagan, undan keyingi o'rinda Chilining shimolidagi Eskondida yirik konini birgalikda boshqaradigan BHP turadi.




Misni asosiy ishlab chiqaruvchilari

AQShda mis qazib olish muhim biznes hisoblanadi. Ayni paytda Arizona shtatida mamlakatning eng yirik mis konlaridan biriga aylanishi mumkin bo'lgan Resolution Copper sifatida ma'lum BHP va Rio Tinto yirik qo'shma korxonasini yaratish rejalashtirilmoqda.



Yaponiya ko'pgina sanoat, shuningdek, qurilish tarmoqlarida ishlatiladigan mis iste'molini ham ko'paytirmoqda [9].

Mis foydalaniladigan sohalar




■ kabel va elektr o'tkazgich mahsulotlar ■ misni prokatlash ■ Mis qotishma plokatlari ■ Quyma

2-rasm. – Mahsulot tarkibida mis iste'molining tuzilmasi

Kapital xarajatlar (CAPEX) bilan ko'proq bog'liq bo'lgan po'latdan farqli o'laroq misdan tayyorlangan mahsulotlar ko'proq operatsion faoliyat (OPEX)ga tegishli bo'ladi. Shuning uchun, iste'mol tuzilmasida qurilish tarmog'ining ulushi faqat 28% (po'latda 52%)ni tashkil qiladi, ustuvor toifa esa iste'mol mahsulotlari, sovutish tizimlari, elektronika va boshqalarni o'z ichiga oluvchi "boshqa uskunalar" hisoblanadi.

Mis foydalaniladigan sohalar



■ boshqa uskunarlar ■ ishlab chiqarish sanoati ■ Infrastruktura ■ Transport ■ qurilish


3-rasm. – Mahsulot tarkibida mis iste'molining tuzilmasi

Misdan tayyorlangan mahsulotlar tarkibida shak-shubhasiz kabel va sim mahsulotlari ustun turadi. Bunda rivojlangan mamlakatlarda kabel va sim mahsulotlarining ulushi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ancha kam [10].

Jahon bozorida mis eksporti


2020 yilda quyidagi mamlakatlar mis rudasi va konsentratlarining asosiy eksportchilari bo'lishgan edi [11]:

- Chili - jahon eksportining 38% (21 mlrd. AQSh dollari)
- Peru - 16,4% (9,17 mlrd. AQSh dollari)
- Kanada - 5,95% (3,32 mlrd. AQSh dollari)
- Avstraliya - 5,73% (3,2 mlrd. AQSh dollari)
- Meksika - 5,15% (2,87 mlrd. AQSh dollari)



4-rasm. - 2020 yilda mis rudasi va konsentratlarining asosiy eksportchilari

Jahon bozorida mis eksporti



5-rasm. - 2020 yilda mis rudasi va konsentratlari eksportining eng yirik savdo oqimlari

Chili — dunyodagi eng yirik mis eksportchilaridan biri. Eksport tarkibiga mis rudasi, tozalangan mis va misni birlamchi qayta ishlash mahsulotlari kiradi. Chilida qazib olish sanoat klasteri mintaqalarni rivojlantirishning davlat tomonidan rag'batlantirilishiga dunyodagi eng yaxshi misollardan biri hisoblanadi [12].


Peru tog'-kon sanoati sohasida dunyodagi yetakchilardan biri hisoblanadi. Peru tog'-kon sanoatiga jami investitsiyalar \$65 milliardni tashkil etadi. Peru asosan ochiq va yer osti qazib olish ishlari uchun uskunalar va komponentlar (58%), shuningdek, tog'-kon va qayta ishlash uskunarini (40%) eksport qiladi [13].

Kanada boshqa rivojlangan mamlakatlardan ulkan tabiiy resurslar - mineral va yer resurslari mavjudligi bilan farq qiladi. Mamlakat mis qazib olishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon bozorida mis importi


2020 yilda quyidagi mamlakatlar mis rudasi va konsentratlarining asosiy importchilari bo'lishgan edi:

- Xitoy - jahon importining 55% (34 mlrd. AQSh dollari)
- Yaponiya - 15,7% (9,79 mlrd. AQSh dollari)
- Janubiy Koreya - 6,8% (4,23 mlrd. AQSh dollari)
- Germaniya - 3,88% (2,42 mlrd. AQSh dollari)
- Ispaniya - 2,94% (1,83 mlrd. AQSh dollari)
- Bolgariya - 2,68% (1,67 mlrd. AQSh dollari)



6-rasm. - 2020 yilda mis rudasi va konsentratlarining asosiy importchilari

Jahon bozorida mis importi



7-rasm. - 2020 yilda mis rudasi va konsentratlari importining eng yirik savdo oqimlari


Karantin yakunlangandan keyin kechiktirilgan talab va Lotin Amerikasidan xom ashyoni yetkazib berishlarning tiklanishi **Xitoyning** mis importi ko'tarilishiga sabab bo'ldi [14].

Yaponiya importiga foydali qazilmalar, jumladan, mis taqchilligi sabab bo'lmoqda. Oltingugurt Yaponiya tog'-kon sanoatida markaziy o'rinni egallaydi.

Janubiy Koreyada mis importining o'sishining asosiy sababi ichki talabdan oshgan metallurgiya kombinatlari tomonidan ichki talabning ortishidir [15].

Mis bozori bo'yicha prognoz

Mis bozori bo'yicha prognoz neytraldir, chunki joriy narx tannarxning egri chizig'idan sezilarli darajada oshadi. 282 ming tonna miqdorida unchalik katta bo'lmagan yetishmovchilik kutilmoqda [16].



Jahon mis bozorining yaqin kelajakda yillik iste'molning kamida 1% yetishmovchiligi bilan deyarli muvozanatli bo'lib qolishi kutilmoqda, negaki jahon iqtisodiyoti pandemiya oqibatlaridan tiklanib bormoqda.

Biroq, COVID-19 bilan bog'liq ishlab chiqarishning to'xtalishlari joriy yildagi mis qazib olishga ta'sir qilishi mumkin.

Mis bozori bo'yicha prognoz

2022 yilda bozor uchta: Spens Chilida, Mina Xusta Peruda va Kamo-Kakula Kongodagi yangi yirik loyihalar ishlab chiqarishni ko'paytirib borishi sayin taxminan 319 ming tonna (yillik iste'moldan kamida 1%) miqdorda profitsitga qaytishi mumkin.



Uzoq muddatli istiqbolda qayta tiklanadigan energetikaga investitsiyalar va avtotransport vositalarini elektrlashtirish, jumladan, zaryad qilish infratuzilmasini rivojlantirish va magistral elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish tufayli misga bo'lgan talab o'sadi. Bularning barchasi, agar taklif tomonidan javob reaksiyasi bo'lmasa, bozorda yetishmovchilikka olib kelishi mumkin.

1. Copper - Global Market Trajectory & Analytics // https://www.researchandmarkets.com/reports/338726/copper_global_market_trajectory_and_analytics
2. Copper Market 2021: 5.1% CAGR with Top Countries Data, Who are the Top key players in the global Copper Industry? | Latest 151 Pages Report // <https://www.marketwatch.com/press-release/copper-market-2021-51-cagr-with-top-countries-data-who-are-the-top-key-players-in-the-global-copper-industry-latest-151-pages-report-2021-09-21>
3. Обзор мирового рынка меди и перспективы развития до 2030 г. // https://marketpublishers.ru/report/industry/metallurgy/cooper_market_review.html
4. Рынок меди в 2020 году // https://www.metalresearch.ru/refined_copper.html
5. Обзор ситуации на рынке меди: производство, потребление, цены // <https://www.metalinfo.ru/ru/news/119564>
6. Основные тенденции на рынке меди // <https://ar2020.nornickel.ru/commodity-market-overview/copper>
7. Profiling the world's top five copper mining countries in 2020 // <https://www.nsenergybusiness.com/news/top-five-copper-mining-countries/>
8. Составление профилей пяти ведущих стран мира по добыче меди в 2020 году // <https://www.nsenergybusiness.com/news/top-five-copper-mining-countries/>
9. Рынок цветных металлов Японии // <https://www.cmmarket.ru/countries/japan.htm>
10. Обзор ситуации на рынке меди: производство, потребление, цены // <https://www.metalinfo.ru/ru/news/119564>
11. Руды и концентраты медные // https://trendeconomy.ru/data/commodity_h2/260300
12. Учиться у Чили // <https://www.kommersant.ru/doc/2498160>
13. Перу как новый игрок в глобальной цепочке // <https://mining-media.ru/ru/article/ekonomic/13948-peru-kak-novyj-igrok-v-globalnoj-tsepochke-gornogo-oborudovaniya>
14. Китайский импорт меди близок к рекордному // <https://www.metalinfo.ru/ru/news/120133>
15. Южная Корея за месяц нарастила импорт лома на 69% // <https://gmk.center/news/juzhnaya-koreya-za-mesyac-narastila-import-loma-na-69/>
16. Copper Market 2021: 5.1% CAGR with Top Countries Data, Who are the Top key players in the global Copper Industry? | Latest 151 Pages Report // <https://www.marketwatch.com/press-release/copper-market-2021-51-cagr-with-top-countries-data-who-are-the-top-key-players-in-the-global-copper-industry-latest-151-pages-report-2021-09-21>



Ўзбекистон Республикаси Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022